

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DAVLATCHILIGI VA
BOBURIYLAR IMPERIYASINING SHAKLLANISH JARAYONI**

Eshqobilova Fazilat Fazliddin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti
tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Maqola Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va faoliyatini, uning Temuriylar merosini davom ettirib, Hindistonda Boburiylar imperiyasini barpo etishini yoritadi. Boburning siyosiy strategiyasi, harbiy yurishlari va adabiy ijodi tarixiy manba sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada uning siyosiy, harbiy va madaniy merosi zamonaviy tadqiqotlar nuqtai nazaridan baholanadi.

Kalit soʻzlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburiylar imperiyasi, Temuriylar saltanati, Movarounnahrda siyosiy vaziyat, tarix jarayonlar, harbiy strategiya, Boburnoma asari, adabiyot sohasi, Hindiston diyori, sarkardalik qobiliyati.

XV–XVI asrlarda Movarounnahr siyosiy va ijtimoiy beqarorlik davrini boshdan kechirgan, bu esa Temuriylar sulolasining qudratiga jiddiy tahdid solgan. Shu murakkab sharoitda Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat yosh hukmdor, balki sarkarda, adib va tarixchi sifatida tarix sahnasiga chiqdi. Uning siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari va adabiy merosi nafaqat oʻz davri, balki keyingi asrlar uchun ham muhim tarixiy manba boʻldi.

Tadqiqotchilar taʼkidlashicha, temuriy shahzodalar oʻrtasidagi siyosiy raqobat davlat boshqaruv tizimini izdan chiqargan, viloyat hokimlarining mustaqillikka intilishi esa markaziy hokimiyatning yemirilishiga olib kelgan. Savdo yoʻllarining beqarorlashuvi va qishloq xoʻjaligidagi tanazzul iqtisodiy tanglikni kuchaytirgan. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda temuriylar sulolasining vakili Zahiriddin Muhammad Bobur siyosiy maydonga chiqdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug‘ilgan. Otasi Umarshayx Mirzo, onasi Qutlug‘ Nigorxonim edi. Uning nasl-nasabi ota tomondan Amir Temurga, ona tomondan esa Chingiziylar sulolasiga borib taqaladi. Bu genealogik asos uning siyosiy legitimatsiyasini mustahkamlagan muhim omil bo‘lgan. 1494-yil 10-iyunda, atigi 12 yoshida Farg‘ona taxtiga o‘tirgan Bobur murakkab siyosiy vaziyatga duch keldi. “Boburnoma”da uning dastlabki hukmronlik yillari, ichki nizolar va tashqi tahdidlar batafsil bayon qilingan[4].

XV–XVI asrlar chorrahasida Movarounnahr va unga tutash hududlarda yuz bergan siyosiy jarayonlar faqat sulolaviy kurashlar bilan cheklanib qolmagan, balki mintaqaviy geosiyosiy kuchlar nisbatining o‘zgarishi bilan ham bog‘liq edi. Temuriylar davlati inqirozi jarayonida Dashti Qipchoqdagi o‘zbek qabilalarining markazlashuvi va Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi harbiy yurishlar Movarounnahr siyosiy xaritasini tubdan o‘zgartirdi. Natijada temuriy hukmdorlar o‘rtasidagi ichki nizolar tashqi bosim bilan qo‘shilib, davlatning parchalanish jarayonini tezlashtirdi. Ayrim tarixchilar bu davrni “kechki temuriylar davri siyosiy fragmentatsiyasi” deb ataydilar.

Bobur uchun Samarqandni egallash siyosiy va ma’naviy maqsad edi. 1497-yilda Samarqandni egallagan bo‘lsa-da, uni 100 kun saqlab tura oldi, 1501-yilda yana qo‘lga kiritib, sakkiz oydan so‘ng tark etishga majbur bo‘ldi[2]. Bu muvaffaqiyatsizliklar Shayboniyxon qo‘shinlarining harbiy ustunligi va Movarounnahrdagi iqtisodiy zaiflik bilan izohlanadi. 1504-yilda Kobulning egallanishi Bobur faoliyatida burilish yasadi. Kobul savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan bo‘lib, u yerda Bobur markazlashgan boshqaruv tizimini shakllantirdi va harbiy islohotlar o‘tkazdi[3].

Shu murakkab tarixiy vaziyatda yetishib chiqqan Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati ko‘p qirrali bo‘lib, uning faoliyati faqat harbiy yurishlar bilan emas, balki davlat boshqaruvi tajribasi bilan ham ahamiyatlidir. Bobur Kobulni

egallagach, u yerda moliyaviy boshqaruvni qayta tashkil etdi, yer-soliq tizimini tartibga soldi va mahalliy zodagonlarni markaziy hokimiyatga bo'ysundirish siyosatini olib bordi. Kobul davrida u iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida savdo yo'llari xavfsizligini mustahkamladi[4], bu esa keyinchalik Hindistonga yurishlar uchun moddiy asos bo'lib xizmat qildi.

1526-yil 21-aprelda bo'lib o'tgan Panipat jangida Bobur Dehli sultoni Ibrohim Lodi ustidan hal qiluvchi g'alaba qozondi. Ushbu jangda artilleriya va o'qotar qurollarning qo'llanilishi Hindiston harbiy tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Natijada Dehli va Agra shaharlari egallanib, Boburiylar imperiyasiga asos solindi. Mazkur sulola 1526–1858-yillarda hukmronlik qilib, Hindiston siyosiy va madaniy hayotida yetakchi rol o'ynadi[1].

Bobur Hindistonda hokimiyatni qo'lga kiritgach, o'zini faqat istilochi sifatida emas, balki qonuniy hukmdor sifatida namoyon etishga intildi. U mahalliy amaldorlar va zodagonlar bilan murosas siyosatini olib bordi, diniy bag'rikenglik tamoyillariga amal qildi. Uning farmonlarida aholi manfaatlarini himoya qilish, tartib-intizomni mustahkamlash va adolatli boshqaruvni yo'lga qo'yish masalalari aks etgan[6]. Shu tariqa 1526-yilda asos solingan Boburiylar imperiyasi keyinchalik Hindiston tarixida eng qudratli davlatlardan biriga aylandi.

Bobur o'z davrining nafaqat buyuk sarkardasi, balki tarixchi va adib ham edi. Uning mashhur asari — Boburnoma — tarixiy, etnografik va geografik ma'lumotlarga boy manbadir. Asarda Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonning siyosiy hayoti, iqtisodiy ahvoli, tabiiy sharoiti va xalq urf-odatlarini yoritilgan[5]. Tadqiqotchilar ushbu asarni Sharq memuar adabiyotining nodir namunasi sifatida baholaydilar. Bobur turkiy va fors tillarida ijod qilgan bo'lib, uning she'riyati lirik samimiylilik va tarjimaihol ruhining kuchliligi bilan ajralib turadi. Bu jihatdan u Alisher Navoiy an'analarini davom ettirgan[7].

Hindistonning birinchi Bosh vaziri Javoharlarl Neru o‘zining Hindistonning kashf etilishi asarida Boburni “Uyg‘onish davrining haqiqiy hukmdori” deb ataydi va uning madaniyat hamda san’atga bo‘lgan muhabbatini alohida ta’kidlaydi[8]. Bu baho Boburning shaxsiy fazilatlari va tarixiy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Zahiriddin Muhammad Bobur temuriy davlatchilik an‘analarini Hindistonda davom ettirgan, harbiy strategiyani yangi bosqichga olib chiqqan va adabiy meros yaratgan buyuk tarixiy shaxsdir. Umuman olganda, Mirzo Bobur shaxsiyati Sharq va Janubiy Osiyo tarixida muhim o‘rin tutadi. U temuriy davlatchilik an‘analarini yangi hududda tiklab, markazlashgan boshqaruv asoslarini yaratdi, harbiy strategiyada innovatsion yondashuvlarni joriy etdi hamda boy adabiy meros qoldirdi. Uning faoliyati natijasida shakllangan Boburiylar davlati keyingi asrlarda Hindiston siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining muhim omiliga aylandi. Bobur merosi bugungi kunda ham tarixshunoslik, adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida dolzarb ilmiy tadqiqotlar ob’ekti bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Majumdar R.C. (ed.). The Mughal Empire. Bombay: Bharatiya Vidya Bhavan, 1974, pp. 1–15.
2. Sharma L.P. Boburiylar saltanati. Toshkent: Ma’naviyat, 1998, 7–12-betlar.
3. Erskine W. History of India under Baber and Humayun. London: Longman, 1854, pp. 45–60.
4. Fayziyev A. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari. Toshkent: Yozuvchi, 1996, 12–18-betlar.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent: Sharq nashriyoti, 2002, 25–40-betlar.
6. Lane-Poole S. Babar. London: Rulers of India Series, 1899, pp. 30–55.
7. Rahmonov V. Zahiriddin Muhammad Bobur. Toshkent: Akademnashr, 2022, 4–10-betlar.

8. Javoharla'l Neru. Hindistonning kashf etilishi. Toshkent: O'zbekiston, 1969, 145–150-betlar.